

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

KARIMOV BAXTIYOR AKRAMOVICH

**POMIDOR HOSILDORLIGI VA MEVA SIFATINI OSHIRISH
UCHUN PAYVANDLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQISH**

06.01.06 – Sabzavotchilik

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT- 2025

**Qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Karimov Baxtiyor Akramovich

Pomidor hosildorligi va meva sifatini oshirish uchun payvandlash
texnologiyasini ishlab chiqish 5

Каримов Бахтиёр Акрамович

Разработка технологии прививки для повышения урожайности и качества
плодов томата 22

Karimov Bakhtiyor Akramovich

Development of grafting technology to increase the yield and quality of tomato
fruits 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

KARIMOV BAXTIYOR AKRAMOVICH

**POMIDOR HOSILDORLIGI VA MEVA SIFATINI OSHIRISH
UCHUN PAYVANDLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQUISH**

06.01.06 – Sabzavotchilik

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.2.PHD/Qx134 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb- sahifasida (www.sabzavotilm.uz) va «Ziyonet» axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mavlyanova Ravza Fazletdinovna

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Nadjiyev Jo‘raxon Narsaidovich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dotsent

Rustamov Behzod Abdumalikovich

qishloq xo‘jaligi bo‘yicha falsafa fanlari doktori,

Yetakchi tashkilot:

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi 05/30.09.2022.Qx.152.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 5 sentyabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko‘k Saroy qishlog‘i. Tel./ faks +998 71 – 226-85-03.

Dissertatsiya bilan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining kutubxonasida tanishish mumkin (3/2025-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko‘k Saroy qishlog‘i. Tel./ faks +998 71 – 226-85-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil _____ reyestr bayonnomasi).

R.A. Nizomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

F.F. Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha falsafa
fanlari doktori, k.i.x.

A.J. Shokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo bo'yicha pomidor, qalampir, baqlajon, bodring, qovun, tarvuz va boshqa ekinlar ko'chatlarini yetishtirishda vegetativ payvandlash keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Payvandlangan ko'chatlarni yetishtirish kundan-kunga jadallashib bormoqda va yillik ishlab chiqarish Xitoyda – 1 mlrd, Yaponiyada – 750 mln, Janubiy Koreyada – 540 mln, Ispaniyada – 129 mln, Italiyada – 59 mln, Fransiyada – 28 mln, Niderlandiyada – 25 mln va Marokashda – 20 mln donani tashkil qilmoqda. Osiyo va Yevropaning ko'plab davlatlarida, AQSH va Avstraliyada ham ishlab chiqarishda sabzavot ekinlarining payvandlangan ko'chatlaridan foydalanib kelinmoqda [Grieneisen M., 2018]. Bugungi kunda sabzavotchilik sohasida tadqiqotlar olib borish, vegetativ payvandlash texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda (Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Ispaniya, Italiya, Fransiya, Niderlandiya, Marokash, AQSH va Avstraliya) so'nggi yillarda issiqxona va ochiq dala sharoitida sabzavotlar hosildorligini oshirish maqsadida sabzavot ekinlarini vegetativ payvandlash texnologiyasi juda tez rivojlanib bormoqda. Bu ishlarni amalga oshirilishining asosiy sababi, ko'plab davlatlarda qurg'oqchilik, haroratning keskin o'zgarishi, tuproq unumdorligining kamayishi va sho'rlanishi kabi atrof-muhitdagi noqulay shart-sharoitlar hamda biotik omillar bo'lgan zararkunanda va kasalliklar bilan kurashishga o'ziga xos yondoshuv sifatida alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekistonda yetishtiriladigan pomidor navlari shakli, rangi va ta'm sifati bo'yicha yaxshi ko'rsatkichlarga ega, ammo atrof-muhitning biotik va abiotik noqulay omillari hosildorlikni keskin kamaytiradi va o'simliklarni erta qurib qolishiga olib keladi. Bir qator sabzavot ekinlarining hosildorligi va sifatini oshirish usullaridan biri, payvandlash usulini qo'llashdir. Biroq, bizning Respublikada hozirgi kunga qadar sabzavot ekinlarini vegetativ payvandlash texnologiyasini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan va bu, tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 noyabrdagi PQ-4020-son «Issiqxona komplekslarini rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»¹ qarorida resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarga asoslangan issiqxona xo'jaliklarini jadal rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlash hamda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning zamonaviy usullarini qo'llagan holda ishlab chiqarilayotgan ekologik toza meva-sabzavot mahsulotlari turlarini kengaytirish tizimini yaratish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda PQ-4549-son «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»² qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarida PF-60-son «2022-

¹ <https://lex.uz/docs/4068988>

² <https://lex.uz/docs/4641164>

2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»³ to‘g‘risidagi farmoni; Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-oktabrdagi 567-son «Issiqxona xo‘jaliklari va meva-sabzavotlarni eksport qiluvchi korxonalarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi⁴ qarori kabi meyoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan. Mazkur dissertatsiya ishi QXA-8-026-2015-sonli «Pomidorning kasalliklarga chidamli yuqori sifatli mayda mevali (*cherri*) navlar va F1 duragaylar seleksiyasi, himoyalangan yerda payvandlash uchun payvandtag tanlash» (2015-2017 y.y.) mavzusidagi davlat loyihasi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ko‘pchilik davlatlarida vegetativ payvandlash texnologiyasini takomillashtirish maqsadida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Pomidorni payvandlash bo‘yicha Yevropada G.Colla, M.Besri, Turkiyada P.Cakmak, Isroilda M.Edelstein, Tayvanda M.C.Palada, L.Black, Koreyada J.M.Lee, Yaponiyada M.V.Oda, Xitoyda Y.Huang, AQShda W.Peregrine, C.Kubota, Avstraliyada C.L.Rivard, F.L.Louws kabi olimlarning ishlari keng tarqalgan.

Markaziy Osiyoda sabzavot ekinlarining vegetativ payvandlanishi borasida ma‘lumotlar kam edi, shuning uchun ham hech qanday tadqiqotlar olib borilmagan. O‘zbekistonda payvandlash uchun pomidor namunalarini o‘rganish bo‘yicha birinchi tadqiqotlar 2010 yilda B.A.Karimovning magistrlik dissertatsiya ishi doirasida Toshkent davlat agrar universitetida R.F.Mavlyanova va SH.Asadov rahbarligida boshlangan.

Ishlab chiqilgan dastur va o‘tkazilgan keyingi tadqiqotlar asosida ushbu dissertatsiyada ilk bor, O‘zbekistonda pomidorni payvandlash texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha natijalar taqdim etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti QXA-8-026-2015-sonli «Pomidorning kasalliklarga chidamli yuqori sifatli mayda mevali (*cherri*) navi va F₁ duragayi seleksiyasi, himoyalangan yerda payvandlash uchun payvandtag tanlash» (2015-2017 y.y.) mavzusidagi davlat loyihasi doirasida bajarildi. Ilmiy izlanishlar Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti (SPEvaKITI) issiqxonalarida olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Pomidorni vegetativ payvandlash texnologiyasini ishlab chiqish, payvandlashning asosiy elementlarini o‘rganish, payvand qilingan navlarni issiqxona sharoitida kompleks o‘rganish, istiqbolli payvandtaglarni ajratib olish va ishlab chiqarishga tavsiyalarni berish.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi

³ <https://lex.uz/docs/5841063>

⁴ <https://lex.uz/pdfs/6645947>

vazifalar qo'yildi:

pomidorning payvandtag va payvandust poyalari diametrini mosligi uchun urug' ekish muddatlarini aniqlash;

ko'chat poyasining diametrining turli nav payvandtag va payvandustlari mutannosibligiga ta'sirini o'rganish;

poyani kesish burchagining payvandlangan ko'chatni tutib ketishiga ta'sirini o'rganish;

pomidor ko'chatlarini vegetativ payvandlash texnologiyasini ishlab chiqish;

payvandlangan pomidor navlarini issiqxonada yetishtirishda biologik xususiyatlari, morfologik belgilari, hosildorligi va kimyoviy tarkibini o'rganish va istiqbolli payvandtaglarini ajratib olish;

pomidor payvandtaglarni ildiz tizimini xususiyatlarini asoslash;

pomidorning payvandlangan o'simliklarini issiqxonada yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

ishlab chiqarishga joriy qilish uchun pomidorni vegetativ payvandlash texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektlari sifatida Davlat reyestriga kiritilgan pomidorning Gulqand, AVE-Mariya va cherri Marvarid navlari hamda Butunjahon Sabzavotchilik Markazidan (Tayvan) keltirilgan 4 ta kolleksiya namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida pomidor nav va namunalarning ko'chatlari, o'simliklari, urug' ekish muddatlari, ko'chat diametri, balandligi, payvand qilingan o'simliklarining biologik xususiyatlari, morfologik va qimmatli-xo'jalik belgillari, biokimyoviy tarkibi hamda iqtisodiy samaradorligi xizmat qiladi.

Tadqiqot uslublari. Ilmiy-tadqiqot ishlarida issiqxonada pomidor payvandi bo'yicha tajribalarni joylashtirish va izlanishlar quyidagi uslubiy qo'llanmalari asosida o'tkazildi: Black L. va boshqalar "AVRDC International Cooperators' Guide" (2003), "Metodicheskiye ukazaniya po izucheniyu i podderjaniyu mirovoy kolleksii ovoshnix, paslenovix kultur (tomat, perets, baklajan)" (1977), A.I.Yermakov va boshqalar "Metodi bioximicheskogo issledovaniya rasteniy" (1987), N.I.Glunsov "Agrotexnicheskaya laboratoriya ovoshevodstva" (1989). Agrotexnik tadbirlarida N.S.Bakuras (1982) uslubnomasidan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar B.A.Dospexov (1985) uslubi yordamida statistik tahlil qilindi, tajribaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi bozor islohotlari ilmiy-tadqiqot institutining normativ tadqiqot markazi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor madaniy (*Lycopersicon esculentum* Mill.) turiga mansub va (*Lycopersicon esculentum* ssp. *pimpinellifolium*) tur xiliga mansub pomidor nav namunalari issiqxonada vegetativ payvandlash uchun istiqbolli payvandtaglar tanlash uchun kompleks o'rganilib, pomidorning turli navlarida payvandust va payvandtag mutannosib bo'lishi uchun ssp. *Pimpinellifolium* tur xiliga mansub payvandtag urug'larini eng muqobil ekish muddati aniqlangan (payvandustdan 3 kun ertaroq);

payvandlash uchun ko'chatning eng muvofiq diametri (1,6-1,8 mm) va balandligi (4,5-5,2 sm) ikki chinbarg fazasida ekanligi hamda payvandust va payvandtagni payvandlashda payvandlangan ko'chatlarni yaxshi tutib ketishiga yordam beradigan eng maqbul poyani kesish burchagi (45⁰) aniqlangan;

payvandlangan pomidor o'simliklarini issiqxonada yetishtirishda ularning biologik o'ziga hosligi, morfologik belgilari, kasalliklarga chidamligi va hosildorligi o'rganilib ilk bor №10 va №19 payvandtaklarning ildiz tizimining rivojlanish xususiyatlari ilmiy asoslangan;

ilk bor issiqxona sharoitida yetishtirishga mos bo'lgan payvandlangan Gulqand, AVE-Mariya va Marvarid (cherri) pomidor navlarini har tomonlama o'rganish asosida kompleks qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha, hosildorligi 20%ga, meva vazni 43%ga va oziqaviy moddalari 10% ga yuqori bo'lgan istiqbolli № 10 (L03708), № 19 (CLN2071V) va № 20 (CLN2071D) payvandtaglari ajratib olingan hamda issiqxonada payvandlangan pomidor o'simligini yetishtirishni iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda ishlab chiqarishga joriy qilish uchun pomidorni payvandlash texnologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, payvandust Gulqand, AVE-Mariya va Marvarid navlari uchun payvandtagning №10, №19 va №20 istiqbolli kombinatsiyalari ajratib olingan, bunda pomidorni issiqxonada yetishtirishda yuqori hosildorlikga, meva vaznining yuqoriligiga va kimyoviy tarkibini oshishiga erishilgan;

vegetativ payvandlash uchun pomidorning tur xilidan (*Lycopersicon esculentum* ssp. *pimpinellifolium*) foydalanish istiqbolli ekanligi isbotlangan;

O'zbekistonda pomidor uchun birinchi payvandtag "Matonat" navi 2018 yildan Davlat reyestriga kiritigan va respublika bo'yicha rayonlashtirilgan;

issiqxonada pomidorni payvandlash texnologiyasini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan;

O'zbekistonda payvandlash texnologiyasi bo'yicha "Sabzavot ekinlarini vegetativ payvandlash" uslubiy qo'llanmasi tasdiqlanib, chop etirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Ilmiy va amaliy ishlarida qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, tajribalarning uslubiy jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi, ishda klassik va zamonaviy usublarning qo'llanilganligi, har yilgi SPEvaKITI Uslubiy komissiyasi va Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat ta'minoti ilmiy-ishlab chiqarish Markazining (hozirgi nomi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi) aprobatsiya komissiyasi tomonidan yuqori baholanganligi, ilmiy-tadqiqotlar natijalarining respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda tinglanib, muhokama etilganligi hamda mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda, konferensiya to'plamlarida chop etilganligi, olingan natijalarga statistik ishlov berilganligi bilan izohlanagan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uchta rayonlashgan mahalliy navlar (Gulqand, AVE-Mariya va Marvarid) va to'rtta *pimpinellifolium* tur namunalar turli ekish muddatlarida o'rganilganligi va ssp. *Pimpinellifolium* tur xili uchun 3 kun oldin urug' ekish maqbul muddat ekanligi aniqlanganligi, nav namunalarini nihol rivojlanishi o'rganilib, turli pomidor navlar payvandusti va payvandtagi ko'chatlarining muvofiq kelishida optimal diametri (1,6-1,8 mm) va balandligi (4,5-5,0 sm) ikkinchi chinbarg fazasidaligi aniqlanligi, payvandust va payvandtagi payvandlashda kesish burchagining ta'siri o'rganildi hamda payvandlangan ko'chatni eng yaxshi tutib ketishi uchun optimal kesish burchagi 45⁰ ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati payvandlangan pomidor o'simliklarini issiqxonada yetishtirishda ularning biologik o'ziga xosligi, morfologik belgilari, hosildorligi o'rganildi, istiqbolli payvandtag va payvandust kombinatsiyalari ajratib olinganligi, issiqxonada yetishtirilgan payvandlangan pomidor o'simligi mevalari kimyoviy tarkibi o'rganildi va payvandlangan o'simliklar mevalarida kimyoviy moddalarning tarkibi oshishi aniqlanganligi, vegetativ payvandlash uchun pomidor *Lycopersicon esculentum* ssp. *pimpinellifolium* tur xilidan foydalanish istiqbolli ekanligi isbotlanganligi, issiqxonada payvandlangan pomidor o'simligini yetishtirishni iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligi aniqlanganligi, O'zbekistonda vegetativ payvandlash texnologiyasi ishlab chiqilganligi va ishlab chiqarishga tavsiya etilganligi, hamda pomidor uchun payvandtag "Matonat" navining 2018 yildan Davlat reyestriga kiritilishi va respublika bo'yicha rayonlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pomidorni vegetativ payvand qilish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ilmiy natijalari asosida:

pomidorni vegetativ payvandlash texnologiyasi 2017-2020 yillar davomida Toshkent viloyati, Qibray va Andijon viloyatining Jalaquduq tumanlaridagi sabzavot ekinlarini issiqxonada yetishtirishga ixtisoslashgan fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarida jami 8,95 gektar maydonda joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021-yil 11-maydagi 02/029-2055-sonli ma'lumotnomasi). Natijada fermer xo'jaliklari tomonidan pomidorni vegetativ payvandlash texnologiyasini qo'llash asosida payvandlanmagan usulga nisbatan gektaridan o'rtacha 17-19 tonna qo'shimcha hosil olishga erishilgan;

pomidorni Cherri Marvarid/№ 10 payvandtag va payvandust kombinatsiyalari Toshkent viloyati, Qibray tumani "Jo'ra ota" va "Baxtiyor Mirishkor fayz" fermer xo'jaliklariga jami 5,2 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021-yil 11-maydagi 02/029-2055-sonli ma'lumotnomasi). Natijada getardan olinadigan daromad oshib, rentabellik darajasi cherri Marvarid/№10 kombinatsiyasida 341,5 foizni tashkil qilgan.

vegetativ payvandlash texnologiyasini Qibray va Jalaquduq tumanlaridagi ixtisoslashgan fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021-yil 11-maydagi 02/029-2055-sonli ma'lumotnomasi). Natijada №10, №15, №19 va №20 payvandtaglar bilan kombinatsiyalarida payvand qilingan Gulkand, AVE-Mariya va Marvarid navlarida tamaki mozaikasi virusi, jigarrang dog' va fuzarioz so'lish kasalligiga chidamliligini ortishi aniqlangan.

vegetativ payvand texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha 2018 yilda "Sabzavot ekinlarini vegetativ payvandlash" nomli tavsiyanoma tasdiqlangan va chop etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021-yil 11-maydagi 02/029-2055-sonli ma'lumot-nomasi). Natijada respublikadagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlar mazkur tavsiyanomadan sabzavot ekinlarini payvandlashda foydalangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari yillik hisobotlari (2015-2017 yy.) SPEvaKITI ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 8 ta xalqaro va 3 ta respublika

ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 1 ta monografiya va 2 ta uslubiy qullanmalari chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda - 6 ta, ularning 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan. Ilmiy anjumanlar to'plamlarida 11 ta ilmiy maqola chop ettirilgan. ularning 3 tasi respublika va 8 tasi xorijiy to'plamlarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga, ilmiy-tadqiqotlar rejalariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqotlar sharhi va mavzuning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti keltirilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, joriy etish to'g'risidagi ma'lumotlar, tadqiqot natijalarining chop etilganligi, dissertatsiyaning hajmi va tarkibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Sabzavot ekinlarini vegetativ payvandlashning holati (adabiyot sharhi)**" deb nomlangan birinchi bobida sabzavotekinlarini vegetativ payvandlashning dunyoda tarqalishi, payvandlash usulini qo'llash sabablari, payvandtag turlari, payvandlash texnologiyasi va payvandlash bo'yicha turli yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar bo'yicha adabiyot sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot o'tqazish sharoitlari, manbalari va uslublari**" deb nomlangan ikkinchi bobida dala tajribalari o'tkazilgan joyning tuproq-iqlim sharoiti, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti hamda tajribalarni o'tkazish uslublari ta'riflangan. Tadqiqotlar 2015–2017 yy. qishki-bahorgi mavsumda Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining polietilen plyonka bilan qoplangan issiqxonalarda o'tkazildi.

Tadqiqotlarimizda issiqxonada ekishga yaroqli yirik mevali Gulqand, o'rta mevali AVE-Mariya va mayda mevali Marvarid (cherri) navlari o'rganildi. Payvandtag sifatida ushbu navlar uchun Butunjahon Sabzavotchilik Markazidan *Lycopersicon esculentum* ssp. *pimpinellifolium* tur xilidan №10 (L03708) va №15 (L06193) hamda *Lycopersicon esculentum* Mill. turidan №19 (CLN2071V) va №20 (CLN2071D) namunalar foydalanildi.

Ilmiy tadqiqotlar tegishli uslubiy qo'llanmalardan foydalanilgan holda o'tkazildi. Statistik tahlili B.A.Dospexov (1985 y.) bo'yicha olib borildi. Tadqiqotlar pomidorni vegetativ payvandlash texnologiyasining muhim elementlarini ishlab chiqish va nav namunalarini qimmat xo'jalik o'rganish bo'yicha olib borildi.

Nazorat sifatida Gulqand, AVE-Mariya va cherri Marvarid mahalliy navlarning payvandlanmagan o'simliklari xizmat qilgan. Issiqxonada bo'lmachaning hisob

maydoni 5 m², 4 qaytariqda, randomizatsiya usulida, har bir qaytariqda 10 tadan o'simliklar. Ekish sxemasi 40 sm. $\frac{120+80}{2} \times 40 \text{ cm}$ O'simlikni shakllantirish uslubi -

bir poya. O'suv davri davomida fenologik kuzatuvlar, morfologik belgillarni va fitopatologik va entomologik baholash uslubnoma asosida olib borildi. Iqtisodiy samaradorligini texnologik karta yordamida hisoblab chiqildi. Pomidor yetishtirish uchun texnologik xaritalardan foydalanildi.

Dissertatsiyaning **“Vegetativ payvand texnologiyasini asosiy elementlarini o'rganish va yuqori sifatli payvandlangan ko'chatlarni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida vegetativ payvand texnologiyasini asosiy elementlarini o'rganish va yukori sifatli payvandlangan ko'chatlarni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish uchun tadqiqotlar natijalariga bag'ishlangan.

III-bobining **“Payvandust va payvandtag poyasi diametrlarining mutanosibligi uchun urug'larni ekish muddatini tanlash”** deb nomlangan 3.1.-bo'limida payvandust va payvandtag poyasi diametrlarining mutanosibligi uchun urug'larni ekish muddatini tanlash bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Urug'larni kassetadagi tuproq aralashmasiga 3 ta muddatda, 3 kun oraliq bilan ekildi: 1) 3-fevral, 2) 6-fevral va 3) 9-fevral. Urug'larning o'nib chiqishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, deyarli barcha navlarda ko'chatlarning unib chiqishi 5-7 kunda 75% larda kuzatildi. Pomidor *ssp. pimpinellifolium* tur xiligaga mansub namunalar yetishtirilgan madaniy pomidorga qaraganda bir oz ingichka poyaga ega, bu ko'chatlar uchun navlar bilan payvand qilish uchun mos bo'lgan kerakli poya diametrini hosil qilish uchun vaqt talab etiladi.

Birinchi davrda urug'larni ekishda Gulqand, AVE-Mariya va cherri Marvarid navlarining ko'chatlari payvandlash davrida o'sib chiqqan va №10 va №15 yovvoyi turlarning namunalari bilan payvandlashga yaroqsiz bo'lgan, ammo №19 va №20 bu navlar diametri bo'yicha mos edi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida, payvandlash vaqtiga mos diametrli ko'chatlarni olish uchun pomidorning *ssp. pimpinellifolium* tur xiliiga (№10 va №15) tegishli namunalar urug'lari ekilgan navlarning urug'laridan 3 kun oldin ekilgan, 1,6-1,8 mm diametri va balandligi 4,5-5,2 sm niholda ikkita haqiqiy barg bilan bo'lishi kerakligi aniqlandi.

Gulqand, AVE-Maria va cherri Marvarid navlari va uchta ekish muddatda №19 va №20 namunalari uchun ikkinchi muddat ekish vaqti maqbul edi, №10 va №15 namunalar uchun esa birinchi muddatda urug'larni ekish 3 kun oldin amalga oshirildi. Bunday holda, payvandlash paytida payvandust va payvantag to'liq muvofiqligi bilan tutuvchanligi yuqori sifatli payvandlangan ko'chatlarini olish uchun ularning bir poyaga muvaffaqiyatli qo'shilishiga ishonish mumkin.

III-bobining **“Payvandust va payvandtagning sifatli tutib ketishi uchun poyani kesish burchagini tanlash”** deb nomlangan 3.2.-bo'limida payvandust va payvandtagning sifatli tutib ketishi uchun poyani kesish burchagini aniqlash bo'yicha natijalar keltirilgan. Barcha o'rganilgan nav namunalari to'rt xil poya kesish burchagi ostida (30°, 35°, 40° va 45°) payvandlandi, bunda ular ham payvandust, ham payvandtag sifatida ishlatildi.

Ikkinchi chin barg fazasidagi optimal diametrli poya (1,6-1,7 mm) va kerakligicha uzunlikdagi (4,5-5,0 sm) ko'chatlardan foydalanildi. Poyani 30° kesganda deyarli barcha nav namunalari yuqori bo'lmagan poya tutish foiziga (28-36%) ega bo'ldi, faqatgina Gulqand navi 40% ni ko'rsatdi. Poyani 35° kesganda poya tutish foizi deyarli 1,5 barobarga ko'paydi va 52-64% ni tashkil etdi.

Kesish burchagi 40° bo'lganda tutib ketgan poyali o'simliklarning foizi oshib 68%dan 88%gacha, hamda eng yuqori ko'rsatkich cherri Marvarid navi (88%), №10, №15, №19 va №20 namunalarda bo'ldi (72-84%). Eng yuqori natijalarni 45° burchak ostida payvandlanganda erishildi. Bunda Gulqand, AVE-Mariya, cherri Marvarid navlari va №10 namunasi o'simliklari 100% saqlab qolindi. №15 va №20 namunalarida payvandlangan o'simliklar foizi 96% ni tashkil qildi. №19- namuna payvandlangan o'simliklar foizi bo'yicha o'zini yomon tavsiflamagan bo'lsada, boshqa nav namunalarga qaraganda kamroq foizni (90%) ko'rsatdi. Shuning uchun payvandlashni rejalashtirishda payvandlashdan so'ng uning so'lib qolishini inobatga olib ko'proq miqdordagi ko'chatlarni tayyorlash kerak. Biz shuni aniqladikki, poyani optimal kesish burchagi 45° bo'lib, bunda hayotchanligi qaysi navligiga qarab 90-100% bo'lishi kafolatlanadi.

III-bobning **“Pomidor ko'chatlarini vegetativ payvandlash yaratilgan texnologiyasi”** deb nomlangan 3.3.-bo'limida o'rganilgan pomidor nav namunalari vegetativ payvandlash texnologiyasini elementlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Sabzavot ekinlarining vegetativ payvandlanishi O'zbekistonda ishlab chiqilmagan. Vegetativ payvandlash texnologiyasi bir qancha bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich payvandlangan ko'chatning sifatiga bog'liqdir.

Ushbu bo'limda urug'larni issiqxonaga ekish sharoiti, vositalar, ekish chuqurligi, yorug'lik, sug'orish, nihollarni unib chiqishi va o'simliklarni payvandlashdan oldin va keyingi shart - sharoitlar batafsil yoritilgan. Qishki-baxorgi mavsumda yetishtirish uchun issiqxonaga muddatga qarab pomidor urug'lari 10 noyabrdan 10 fevralgacha ekishi tavsiya etiladi. Ko'chat yetishtirish uchun issiqxonada ko'chatlarni ekilganda va yetishtirilganda havo harorati kunduz kuni +25...+28°S va tunda +22...+23°S bo'lish kerak. Ko'chat yetishtirishda tuproq nam sig'imi 75-80%ni tashkil qilishi lozim.

Pomidor ko'chatlarini vegetativ payvandlashni namunaga qarab 2-3 chin barg fazasida poyaning diametri 1,6-1,7 mm (2,0 mm gacha), 2-3 chinbarg paydo bo'lganda bo'lganda amalga oshirish aniqlandi. Sabzavot ekinlarini payvandlash ko'chatlik bosqichida bir o'sib turgan o'simlikning qalamchasini (payvandust), boshqa ildizli o'simlik (payvandtak)ga ulash natijasidir. Payvandlash texnikasi tavsiya etildi.

Olib borilgan tadqiqotimiz asosida №10 payvandtag «Matonat» nomi bilan davlat nav sinoviga topshirildi va 2018 yilda rayonlashtirilib Guvohnoma (№002) berildi.

«Matonat» navi - indeterminant tipda, poya uzunligi 150 sm dan 290 sm gacha, shakli tarqoq, barglanishi o'rtacha, bargi to'q-yashil, o'rtacha tuklangan, barg plastinkasi uzun (7,7 x 4,6 sm). Shonalangan, shonada 10-14 ta mevasi bor. Meva shakli yumaloq (2,5 sm), usti silliq, eti o'rtacha. Mevasi mayda- 10 g., urug' kamerasi

2 ta, urug‘lar soni o‘rtacha. Meva rangi biologik pishib yetilganda - qizil. Bir tup o‘simlikda 325-438 dona meva shakllanadi. Tamaki mozaikasi virusi (VTM), qo‘ng‘ir dog‘lilik va fuzarioz so‘lish kasalliklariga chidamli.

Bizning tadqiqotlarimiz asosida ilk bor O‘zbekiston sharoitida ishlab chiqilgan pomidorning vegetativ payvandlash texnologiyasining sxemasi keltirilgan (1-rasm).

Unga respublikada rayonlashtirilgan payvandust sifatida foydaladigan mahalliy pomidor navlarning Gulqand, AVE-Mariya, cherri Marvarid navlarining yuqori sifatli payvandlangan ko‘chatlarini yetishtirish uchun vegetativ payvandlashning barcha bosqichlari kiradi.

Payvandtag sifatida «Matonat» navi (№10) hamda №15, №19 va №20-sonli namunalardan foydalanishi aniqlandi. Ilk bor biz vegetativ payvandlash uchun payvandtag sifatida pomidorning *ssp. pimpinellifolium* tur xilidan foydalandik.

Pomidorning ushbu tur xiliga tegishli bo‘lgan payvandtaglardan (№10 va №15) foydalanganda, ularning urug‘larini madaniy navlarning urug‘laridan 3 kun oldin ekish tavsiya etiladi. Urug‘larning unib chiqishi, ko‘chat o‘sishi davrida havo harorati +25...+ 28⁰C, havo namligi 70-85% gacha bo‘lishi kerak. Ko‘chatlarning balandligi 5 sm dan oshmagan, 2 ta chin barg bosqichida, poya diametri 1,6-1,8 mm bo‘lganida payvandlash kerak.

Payvandlashning oddiy usulidan foydalanish uchun poyani kesish burchagi 45⁰ ga teng bo‘lishi kerak. Kesish birinchi haqiqiy bargning tuguni ostida amalga oshiriladi. Payvandlash paytida xonadagi havo harorati +20...+23⁰C bo‘lishi lozim.

Payvandlashdan keyin ko‘chatlarni 10-15 daaaa davomida darhol 4-5 kun davomida poya tutilishi uchun maxsus qorong‘i kameraga joylashtirish talab qilinadi. Dastlabki 3 kunda yuqori haroratni (+25... +30⁰C) va havoning yuqori namligini (85-90%) ushlab turib, keyin haroratni asta-sekin +24...+28⁰C gacha, namlikni 70-80% gacha kamaytirish kerak. Ikkala poyalar tutushidan so‘ng, xonani ventilyatsiya qilishni boshlash va ko‘chatlarni issiqxonada pomidor yetishtirish uchun yerga ekishdan oldin yorug‘likka moslashtiring zarur. Biz tomonidan ishlab chiqilgan pomidor vegetativ payvandlashning innovatsion texnologiyasi rayonlashtirilgan pomidor navlarining yuqori sifatli ko‘chatlarini yetishtirish, mahalliy bozor va eksport uchun hosildorlik va mahsulot sifatining sezilarli darajada oshishini ta’minlaydi.

Jami: 6 hafta

Havo namligi	70-85%	85-90%	75-80%	70-80%
Harorat	+25..+28 ⁰ S	+25+30 ⁰ S	+24..+27 ⁰ S	+24..+28 ⁰ S
Yorug'lik		Qorong'ilik		



Izox:


* Payvandust sifatida pomidorning «Gulqand», «AVE-Mariya» va «Marvarid» (cherri)dan foydalaniladi.

** Payvandtag sifatida («№ 10» (Matonat), №19) va «№ 20» namunasi foydalaniladi.

*** Pomidorni payvandlash uchun chop etilgan «Sabzavot ekinlarini vegetativ payvandlash» qo'llanmadan foydalaniladi.

1- rasm. O'zbekistonda pomidor navlarni payvandlash texnologiyasini sxemasi.

Dissertatsiyaning “**Pomidorning payvandlangan o‘simliklarining qimmatli xo‘jalik belgilarini kompleks o‘rganish va istiqbolli payvandtaglarni ajratib olish**” deb nomlangan turtinchi bobining “**Payvand qilingan o‘simliklarining biologik xususiyatlari**” deb nomlangan 4.1-bo‘limida pomidor navlarining biologik xususiyatlari natijalari keltirilgan. Pomidorning Gulqand navida ommaviy (75%) fazasida 1-3 ta gul shingillarini shakillanishi 81 dan 91 kungacha, gullashi 99-102 kun va meva pishishi 136-141 kungacha o‘zgardi. AVE-Mariya navida ushbu ko‘rsatkichlar shunga ko‘ra 85-89, 96-99, 136-138 kun va cherri Marvarid navida 78-84, 96-97, 134-138 kun tashkil etdi (2-rasm). Gulqand, AVE-Mariya va cherri Marvarid navlarini o‘z o‘simliklariga payvand qilishda o‘simliklar past o‘sishi va mevalar kech pishishi aniqlandi. №10 va №19 payvandtaglari bilan kombinatsiyalangan navlarda, №15 va №20 kombinatsiyalarga nisbatan rivojlanishning barcha fenologik fazalari 2 kun oldin kuzatildi.




2-rasm. Pomidorning payvand qilingan kombinatsiyalari ko‘rsatkichlari (2015-2017 yy.).

IV-bobning “**Payvand qilingan o‘simliklarining morfologik belgillari**” deb nomlangan 4.2. bo‘limida pomidorning morfologik belgilarini o‘rganish natijalari keltirilgan. Pomidor o‘simligining 90, 120 va 150 kunlik o‘shidagi morfologik o‘zgarishlar aniqlandi. 150 kunda Gulqand navida asosiy poya balandligi o‘zgarishi 193 dan 126 sm gacha, barglar soni 23-28, gul shingillar 7 ta, gullar 3-7 dona, meva tugunchalar 2 ta, mevalar 6-12 dona tashkil etdi. AVE-Mariya navida ushbu ko‘rsatkichlar shunga ko‘ra 143-179 sm, 8, 2-7, 2-3, 6-14 dona bo‘ldi va cherri Marvarid navida 200-240 sm, 41-46, 9, 17-27, 2-4, 34-46 dona tashkil etdi. Xamma namunalarga payvand qilingan Gulqand, AVE-Mariya va Marvarid navlari nazoratga nisbatan poya balandligi, barglar soni, shingillar, gullar, meva tugunchalari va mevalar soni bo‘yicha ajratildi (2-rasm). O‘tkazilgan izlanishlar asosida bizlar eng yaxshi Gulqand/№10 va Gulqand/№20; AVE-Mariya/№10 va AVE-Mariya/№20; cherri Marvarid/№10 va cherri Marvarid/№20 kombinatsiyalarni ajratib oldik (3-rasm). Ular issiqxonada yetishtiriladigan pomidor o‘simligining eng yaxshi rivojlanishini ta‘minlab beradi.

IV-bobning “**Pomidor payvandtaklarining ildiz tizimining rivojlanish xususiyatlari**” deb nomlangan 4.3.-bo‘limida pomidor payvandtaglarining ildiz tizimining rivojlanish xususiyatlari keltirilgan. Istiqbolli №10 va №19 payvandtaglarda Gulqand pomidor nav-nazoratga nisbatan asosiy ildizlar soni 12-13

dona (200-225%), ikkinchi va uchinchi tartibdagi ildizlar soni 36-48 donani (57-109%), ildiz bo'ynining diametri 13-19 mm (44-211 %), asosiy ildizning uzunligi 206-231 sm (329-381%), ildizning tabiiy holatida tuproqqa kirib borish chuqurligi 141- 153 sm (236-264%) , ildiz kengligi diametri 88-91 sm (69-75%), xom ildizlarning umumiy vazni 47,6-67,2 g (35-91%) va quruq vazni 16,4-22,8 g (67-133 foizga) oshishi isbotlandi.



3-rasm. Pomidor kombinatsiyalarni (150 kunda) morfologik belgilarini o'zgarishi (2015-2017 yy.)

IV-bobning **“Payvand qilingan o‘simliklarining kasalliklarga chidamliligi”** deb nomlangan 4.4.-bo‘limida pomidorning kasalliklarga chidamliligi bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Issiqxonada olib borilgan kuzatuvlar natijasida eng ko‘p tarqalgan kasalliklar tamaki mozaikasi virusi (*Nicotiana virus* Smith.), barglarning qo‘ng‘ir dog‘lanish (*Cladosporium falirum* Cocke) va fuzarioz (*Fusarium oxysporum*f. sp. *lycopersici*) aniqlandi.

Tajribalarimizda payvand qilingan kombinatsiyalarda o‘simliklarning zararlanishi kuzatilmagan. Faqat pomidorning Gulqand va AVE-Mariya navlarida nazorat va uziga payvand qilingan o‘simliklarida tamaki mozaikasi virusi bilan zararlanishi 4% va 0,3 ballni, qo‘ng‘ir dog‘lanishi bilan zararlanishi bilan 6% va 0,4 ball tashkil etdi. Cherri Marvarid nazorat va o‘ziga payvandangan o‘simliklarida qo‘ng‘ir dog‘lanish zararlanishi kamroq bo‘ldi – 1% va 0,05 ball. Fuzarioz so‘lishi Gulqand va AVE-Mariya navlarida 10% va 5 ball, cherri Marvaril navida esa kamroq (2% va 0,1 ball) tashkil etdi. Bu ma‘lumot shuni tasdiqlaydiki, navlarni chidamli payvandtakga payvandlash o‘simliklarni ayniqsa tuproq kasalliklariga chidamliligini oshirishga imkon berar ekan.

IV-bobning **“Payvand qilingan o‘simliklarining hosildorligi”** deb nomlangan 4.5-bo‘limida pomidorning hosildorligi bo‘yicha tadqiqotlar keltirilgan. Payvand qilinmagan nazorat navlarining umumiy hosildorligi uch yillik tadqiqotlar davomida

o‘rtacha Gulqand – 8,09 kg, AVE-Mariya – 10,26 kg va Marvarid – 10,20 kg/m² tashkil etdi. Taqqoslash uchun, o‘zlariga payvand qilingan ushbu nav o‘simliklari kam hosil berdi (Gulqand – 7,81 kg, AVE-Mariya – 10,0 kg va Marvarid – 9,7 kg/m²) va kombinatsiyalarga nisbatan eng past ko‘rsatkich bo‘ldi (1-jadval).

1-jadval

Issiqxonona sharoitida payvand qilingan pomidor navlarining hosildorligi (2015-2017 y.y.)

Nav, kombinatsiyalar	Hosildorlik			Mevaning o‘rtacha vazni	
	umumiy hosil, kg/m ²	nazoratga nisbatan, %	tovarbopligi, %	g	nazoratga nisbatan %
Gulqand- nazorat	8,09	100	96	179	100
Gulqand / Gulqand	7,81	97	96	175	98
Gulqand / № 10	8,88	112	98	241	135
Gulqand / № 15	8,92	113	98	231	129
Gulqand / № 19	9,25	116	97	233	130
Gulqand / № 20	8,80	109	96	231	129
\bar{x}	8,63	107,83	96,83	215	120,17
EKM _{F0,05}	0,61			29,2	
Ave-Mariya- nazorat	10,26	100	95	123	100
AVE-Mariya+Ave-Mariya	10,00	96	94	118	96
AVE-Mariya / № 10	11,64	116	97	145	118
AVE-Mariya / № 15	10,96	110	98	152	124
AVE-Mariya / № 19	11,85	118	97	137	111
AVE-Mariya / № 20	11,35	113	97	135	110
\bar{x}	11,01	108,83	96,33	135	109,83
EKM _{F0,05}	0,55			12,7	
cherri Marvarid -nazorat	10,2	100	100	21	100
cherri Marvarid / Marvarid	9,7	97	100	20	95
cherri Marvarid / № 10	11,8	116	100	30	143
cherri Marvarid / № 15	11,1	111	100	29	138
cherri Marvarid / № 19	12,2	120	100	26	124
cherri Marvarid / № 20	11,3	111	100	30	143
\bar{x}	11,05	109,17	100	26	123,83
EKM _{F0,05}	0,53			5,9	
S _x , %	3,26			3,72	

Pomidorning uchta navlari uchun eng yaxshi payvandtaklar №10 va №19 ajralib olindi. Ushbu kombinatsiyalarida yirik mevali Gulqand navi hosildorligi 8,88-9,25 kg/m², meva vazni 233-241 g; o‘rta mevali AVE-Mariya navi hosildorligi 11,64-11,85 kg/m², meva vazni 137-145 g; va mayda mevali cherri Marvarid navida hosildorligi 11,8-12,2 kg/m², meva vazni 26-30 g tashkil etdi. Umumiy hisoblaganda ushbu navlari uchun, turli xil kombinatsiyalarda payvandtaglarga payvandlash ijobiy natijalarni ko‘rsatdi va hosilning 20% gacha o‘shishiga, yuqori, tovarbopligi 97-98%) va o‘rtacha meva vaznining 43% gacha o‘shishiga yordam berdi.

IV-bobning “Payvand qilingan o‘simliklarining kimyoviy tarkibi” deb nomlangan 4.6.-bo‘limida pomidorning kimyoviy tarkibi bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Pomidorning Gulqand, AVE-Mariya va cherri Marvarid navlarida quruq moddalar tarkibini o‘zgarishi 6,1 dan 7,5% gacha, umumiy shakar 3,7-5,0%, askorbin

kislotasi 19,6-26,5 mg/kg tashkil etdi. Nitratlar 57-93 mg/kg gacha o'zgardi ammo shu ko'rsatkich PDKdan juda past. Gulqand va AVE-Mariya navlarini payvandlash, payvandtaglariga qarab, quruq moddalar tarkibida 5% ga, askorbin kislotasi 7% ga, umumiy qandlar 8% gacha, Marvarid navida 10% ga ko'payishiga yordam berdi.

IV-bobning **“Pomidorning vegetativ payvandini iqtisodiy samaradorligi”** deb nomlangan 4.7.-bo'limida pomidorning vegetativ payvandini iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Payvandlash hisobiga olingan qo'shimcha sof foyda navlar bo'yicha ajratib olindi. Gulqand navida 99030,0 - 113820,0 ming so'm, rentabellik esa Gulqand/№20 da 230,5%, Gulqand/№10 da 239,8% va Gulqand (nazorat) navida 173,1% bo'lganligi aniqlandi.

AVE-Mariya navida qo'shimcha sof foyda 79340,0 - 94130,0 ming so'm, rentabellik esa AVE-Mariya /№20 da 285,7%, AVE-Mariya/№10 da 276,6% va AVE-Mariya (nazorat) navida 234,0% bo'lganligi aniqlandi.

Marvarid navida qo'shimcha sof foyda 130310,0 - 146170,0 ming so'm, rentabellik esa cherri Marvarid /№20 da 502,5%, cherri Marvarid/№10 da 512,3% va cherri Marvarid (nazorat) navida 434,6% bo'lganligi aniqlandi.

IV-bobning **“Ilmiy-tadqiqot natijalarni joriy etish”** deb nomlangan 4.8.-bo'limida ilmiy –tadqiqot natijalarni joriy etish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Vegetativ payvandlash texnologiyasi Toshkent va Andijon viloyatlari xo'jaliklarida jami 8,95 gektar maydoniga joriy etilgan. Payvandlanmagan o'simliklarga nisbatan payvandlangan navlarida 17-19 t/ga qo'shimcha hosil olindi. Marvarid/№20 kombinatsiyalarida rentabellik 334,4% va Marvarid/№10 - 341,5% ni tashkil etdi. 2018 yilda nashr etilgan Tavsiyanoma «Sabzavot ekinlarini vegetativ payvandlash» " ishlab chiqaruvchilar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

XULOSALAR

1. Ilk bor O'zbekistonda issiqxona sharoitida Gulqand, AVE Mariya va Marvarid rayonlashtirilgan pomidor navlari payvandust sifatida, shuningdek, madaniy pomidorning 2 tizmalari va *ssp. pimpinellifolium* tur xilining 2 tizmalar payvandtag sifatida foydalangan holda vegetativ pomidor payvandlash texnologiyasini ishlab chiqish uchun kompleks tadqiqotlar o'tkazildi.

2. Vegetativ payvandlashning asosiy elementlari o'rganildi va payvand uchun bir xil poya diametri bo'lgan ko'chatlarni yetishtirish uchun urug'larni ekishning maqbul muddati aniqlandi. Pomidorning *ssp. pimpinellifolium* tur xiliga mansub №10 va №15 tizmalarni madaniy navlariga qaraganda 3 kun oldin ekish zarurligi aniqlandi.

3. Vegetativ payvandlash jarayonida poyalarning yaxshi birlashishi uchun ko'chatlar poyasini optimal diametri 1,6-1,8 mm va balandligi 4,5 - 5,2 sm, ikkita chin barglar bo'lgan ko'chatlardan foydalanish kerakligi aniqlandi. Ko'chatlar poyalarining eng yuqori tutuvchanlik foizini (90-100%) ta'minlaydigan poyaning optimal kesish burchagi 45⁰ aniklandi. Payvand qilingan pomidor ko'chatlarini moslashtirish uchun optimal havo harorati va namligi aniqlandi.

4. Ilk bor issiqxonada yetishtirilganda payvand qilingan pomidor o'simliklarining biologik, morfologik va qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. №10 va №19 payvandtaklarida barcha fenologik bosqichlari boshqa kombinatsiyalarga qaraganda 2 kun oldin bo'lgan. Payvandlashning pomidor o'simliklarining 90, 120 va 150-kunlarida o'simlik balandligiga, barglar, gullar va mevalar soniga ta'siri aniqlandi. Gulqand, AVE Mariya va Marvarid navlari uchun o'simliklarning eng yaxshi rivojlanishini ta'minlaydigan №10, №19 va №20 istiqbolli payvandtaglari bilan nav kombinatsiyalari aniqlandi.

5. Payvandtaglarning rivojlangan ildiz tizimi o'simliklarni suv va oziqlanish bilan yaxshiroq ta'minlashga yordam beradi, bu ularning yaxshi rivojlanishiga imkon beradi. Gulqand nazorat naviga nisbatan №10 va №19 istiqbolli payvandtaglari yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi: asosiy ildizlar soni 225% ga, ikkinchi va uchinchi tartibdagi ildizlar soni 109% ga, ildiz bo'yni diametri 211% ga, ildizlarning tuproqqa kirib borish chuqurligi 264% ga, ildiz tizimining diametri 75% ga, xom ildizlarning umumiy vazni 91% ga, quruq vazni 133% ga oshganligi aniqlandi.

6. Vegetativ payvandlash vegetatsiya davrida o'simliklarning kasalliklarga kompleks chidamliligini oshirishga imkon berishi aniqlandi. Gulqand, AVE Mariya va Marvarid navlari №10, №15, №19 va №20 kombinatsiyalarda tamaki mozaikasi virusi, jigarrang dog'lar va fuzarium viltiga 100% chidamliligini ko'rsatdi.

7. Gulqand, AVE Mariya va Marvarid navlari №10 va №19 payvandtaglari bilan kombinatsiyalarda hosildorligi 20% ga, tovarboblighi 97-98% bo'lib va mevaning o'rtacha vazni 43% gacha oshishi aniqlandi.

8. Payvandlash, mevani kimyoviy tarkibini oshirishi va tarkibidagi nitrat miqdorini kamaytirishga ijobiy ta'siri isbotlandi. Gulqand, AVE Mariya va Marvarid navlari №10 va №20 payvandtaglari bilan kombinatsiyalarida tarkibidagi eruvchan quruq moddasi miqdori 5% ga, askorbin kislotasi 7% ga va umumiy qand miqdori 8% ga oshganligini ko'rsatdi.

9. Ilk bor Respublikada issiqxonalar uchun rayonlashtirilgan Gulqand, AVE Mariya va Marvarid pomidor navlarini kompleks o'rganish asosida, turli kasalliklarga chidamli, hosildorlikni 20% ga, meva vazni- 43% gacha, mevalarning kimyoviy tarkibi ko'rsatkichlarni oshiradigan va shuningdek ishlab chiqarishning yuqori rentabelligini ta'minlaydigan №10, №19 va №20 istiqbolli payvandtaglar aniqlandi va ishlab chiqarishga tavsiya etildi.

10. 2018 yilda "Matonat" pomidor navi (№10 payvandtagi) respublikamizning barcha hududlarida rayonlashtirildi va Davlat reyestriga kiritildi (Guvohnoma № 002 - 28.02.2018 y.). №19 va №20 istiqbolli payvandtaglar davlat sinovi uchun tayyorlanmoqda. O'zbekistonda pomidor ko'chatlarini vegetativ payvandlash texnologiyasi bo'yicha Tavsiyanomalar chop etildi. Ilk bor vegetativ payvandlash texnologiyasi ishlab chiqildi, bu esa yuqori sifatli payvandlangan pomidor ko'chatlarini ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek, yuqori hosildorli va sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va daromadlarni oshirish imkonini beradi.

11. Pomidorlarni issiqxonada vegetativ ravishda payvandlashda texnologik xaritaga vegetativ payvandlash uchun mehnat xarajatlari, shuningdek payvand qilingan ko'chatlarni moslashtirish tuzilmalarini narhi bo'yicha qo'shimcha

ma'lumotlarni kiritish taklif etiladi.

Gulqand, AVE Mariya va Marvarid pomidor navlarini vegetativ payvand qilish uchun rayonlashtirilgan "Matonat" navidan payvantag sifatida foydalanish kerak.

Pomidorni vegetativ payvandlash uchun poyaning diametri 1,6-1,8 mm va balandligi 4,5 - 5,2 sm, ikkita chin barglarning bosqichida bo'lgan ko'chatlardan va payvandust poyasini urug' bargni tagidan yoki birinchi chinbargni ostidan 45⁰ optimal kesish burchagi bilan foydalanish tavsiya etiladi. Ko'chatlar ildiz bo'ynidan 5 sm dan oshmaydigan balandlikda payvand qilinishi kerak. Payvandlash paytida ichki havo harorati + 20... +230C bo'lishi kerak.

Payvandlashdan keyin payvand qilingan pomidor ko'chatlarini moslashtirish uchun optimal havo harorati va namligini ta'minlash kerak.

Ishlab chiqarishda pomidorni vegetativ payvandlash uchun nashr etilgan "Sabzavot va poliz ekinlarini vegetativ payvandlash texnologiyasi" Tavsiyanomadan foydalanish tavsiya etiladi

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ 05/30.09.2022.Qx.152.01 ПО ПРИСВОЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ (PhD) ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ОВОЩЕ-БАХЧЕВЫХ КУЛЬТУР И КАРТОФЕЛЯ
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ОВОЩЕ-БАХЧЕВЫХ
КУЛЬТУР И КАРТОФЕЛЯ**

КАРИМОВ БАХТИЁР АКРАМОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПРИВИВКИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ
УРОЖАЙНОСТИ И КАЧЕСТВА ПЛОДОВ ТОМАТА**

06.01.06 – Овощеводство

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам

ТАШКЕНТ – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2017.2.PhD/Qx134.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте овоще-бахчевых культур и картофеля.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на сайте Ученого совета (www.sabzavotilm.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Мавлянова Равза Фазлетдиновна
доктор сельскохозяйственных наук,
профессор

Официальные оппоненты:

Наджиев Журахон Нарсаидович
доктор сельскохозяйственных наук, доцент

Рустамов Бехзод Абдумаликович
доктор философии (PhD) по с-х. наукам

Ведущая организация:

Самаркандский институт агроинноваций и исследований

Защита диссертации состоится 5 сентября 2025 года в 14:00 на заседании Научного совета №05/30.09.2022.Qx.152.01 при Научно-исследовательском институте овоще-бахчевых культур и картофеля. Адрес: 111106, Ташкентская область, Ташкентский район, Кук сарой. Тел.: (+99871) 226-85-03. e-mail: uzrivmcp@mail.ru

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Научно-исследовательского института овоще-бахчевых культур и картофеля (зарегистрированный номер №2/2025). Адрес:111106, Ташкентская область, Ташкентский район, Кук сарой. Тел.: (+99871) 226-85-03. e-mail: uzrivmcp@mail.ru

Автореферат диссертации распространен _____ 2025 года.

Отчет о регистрации № от 2025 г.).

Р.А. Низомов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.с.х, н., профессор

Ф.Ф. Расулов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по с-х. наукам, с.н.с.

А.Ж. Шокиров
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.с.х.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Вегетативная прививка широко используется во всем мире при выращивании рассады томата, перца, баклажана, огурца, дыни, арбуза и других культур. Выращивание привитой рассады набирает обороты, и годовое производство привитой рассады в Китае составляет 1 млрд., Японии – 750 млн., Южной Кореи – 540 млн., Испании – 129 млн., Италии – 59 млн., Франции – 28 млн., Нидерландах – 25 млн. и Марокко – 20 млн. штук. Привитая рассада овощных культур используется в производстве во многих странах Азии и Европы, а также в США и Австралии [Grieneisen M., 2018]. Сегодня одной из актуальных задач является проведение исследований в области овощеводства и разработка технологии вегетативной прививки.

